UO‘K 81

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI LEKSIK-SEMANTIK LAKUNALARNING MIQDORIY VA QIYOSIY-TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI

A’zamov Sayfulbot Muxamadaliyevich,
Is’hoqxon Ibrat nomidagi
Namangan davlat chet tillari instituti
Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, (PhD)
Orcid: https://orcid.org/0009-0003-4888-7966
sayfulbota@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada turli tizimli tillar — ingliz (flektiv-analitik) va o‘zbek (agglyutinativ) tillari leksik-semantik maydonlaridagi lakunalarning miqdoriy va qiyosiy-tipologik xususiyatlari tadqiq etiladi. Tadqiqot 60 birlikdan iborat (30 ta EN→UZ va 30 ta UZ→EN) kodlangan empirik kartoteka asosida olib borildi. Har bir birlik komponent tahlil yo‘li bilan differensial semalarga ajratilib, semantik qamrov koeffitsiyenti (Kq = m/n × 100) hisoblandi hamda lakunarlikni yuzaga keltiruvchi besh dominant mexanizm — nominativ (N), semantik differensiatsiya (S), giperonimik-giponimik assimetriya (H), pragmatik-uslubiy (P) va madaniy-konnotativ (C) mexanizmlar bo‘yicha kodlandi.*

Kalit so‘zlar: *lakuna, lakunarlik, leksik-semantik maydon, qiyosiy-tipologik tahlil, komponent tahlil, semantik qamrov koeffitsiyenti, kontrastiv lingvistika, ingliz tili, o‘zbek tili, χ²-mezon, Kramer V, Mann—Uitni mezoni.*

QUANTITATIVE AND COMPARATIVE-TYPOLOGICAL FEATURES OF LEXICAL-SEMANTIC LACUNAE IN ENGLISH AND UZBEK

Abstract. *The article examines the quantitative and comparative-typological features of lacunae in the lexical-semantic fields of two structurally different languages: English (inflectional-analytic) and Uzbek (agglutinative). The study draws on a coded empirical card index of 60 units (30 EN→UZ and 30 UZ→EN). Each unit was decomposed into differential semes through componential analysis, assigned a semantic coverage coefficient (Kq = m/n × 100), and coded for one of five dominant lacunisation mechanisms: nominative (N), semantic differentiation (S), hyperonymic-hyponymic asymmetry (H), pragmatic-stylistic (P), and cultural-connotative (C).*

Keywords: *lacuna, lacunarity, lexical-semantic field, comparative-typological analysis, componential analysis, semantic coverage coefficient, contrastive linguistics, English, Uzbek, χ² test, Cramér’s V, Mann—Whitney test.*

КОЛИЧЕСТВЕННЫЕ И СОПОСТАВИТЕЛЬНО-ТИПОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИХ ЛАКУН В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *В статье исследуются количественные и сопоставительно-типологические особенности лакун в лексико-семантических полях разноструктурных языков — английского (флективно-аналитического) и узбекского (агглютинативного). Исследование проведено на основе кодированной эмпирической картотеки, состоящей из 60 единиц (30 EN→UZ и 30 UZ→EN). Каждая единица была разложена на дифференциальные семы методом компонентного анализа, был рассчитан коэффициент семантического охвата (Kq = m/n × 100), и произведено кодирование по пяти доминантным механизмам, порождающим лакунарность, — номинативному (N), семантической дифференциации (S), гиперо-гипонимической асимметрии (H), прагматико-стилистическому (P) и культурно-коннотативному (C).*

Ключевые слова: *лакуна, лакунарность, лексико-семантическое поле, сопоставительно-типологический анализ, компонентный анализ, коэффициент семантического охвата, контрастивная лингвистика, английский язык, узбекский язык, критерий χ^2 (хи-квадрат), V-критерий Крамера, U-критерий Манна — Уитни.*

Kirish. Qiyosiy-tipologik tilshunoslikning markaziy vazifalaridan biri turli tizimli tillar leksik tizimlari o‘rtasidagi muvofiqlik va nomuvofiqliklarni izchil tavsiflashdan iborat. Bunday nomuvofiqliklarning eng barqaror hamda nazariy jihatdan ahamiyatli ko‘rinishi lakuna hodisasidir. Ushbu tadqiqotda lakuna deganda bir tilning leksik-semantik tizimida alohida birlik sifatida voqelangan, ammo qiyoslanayotgan ikkinchi til tizimida bir so‘zli nom bilan ifodalanmagan yoxud mavjud muvofiqlik tomonidan semantik hajm jihatidan to‘liq qoplanmagan konseptual-semantik birlik tushuniladi.

Ingliz va o‘zbek tillari nafaqat tipologik tuzilishi (flektiv-analitik va agglyutinativ qurilish), balki ular xizmat qiladigan lingvomadaniy jamoalarning tarixiy-madaniy tajribasi jihatidan ham keskin farqlanadi. Shu bois mazkur til juftligi lakunarlikni o‘rganish uchun tabiiy poligon vazifasini bajaradi. Biroq mavjud tavsiflarda hodisa asosan sifat jihatidan — ayrim misollar orqali yoritiladi: lakunarlik darajasi o‘lchanmaydi, uning tipologik taqsimoti esa ishonchlilik mezonlari bilan tekshirilmaydi. Lakunarlikni miqdoriy parametrlar asosida tavsiflash va uning yo‘nalishga bog‘liqligini statistik jihatdan asoslash bugungi qiyosiy tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Aynan shu holat mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Maqolaning maqsadi — ingliz va o‘zbek tillari leksik-semantik maydonlaridagi lakunalarning miqdoriy parametrlarini aniqlash hamda ularning qiyosiy-tipologik taqsimotini statistik jihatdan asoslashdir. Shundan kelib chiqib quyidagi vazifalar qo‘yildi: (1) lakunarlik darajasini o‘lchashning operatsional ko‘rsatkichini — semantik qamrov koeffitsiyentini ishlab chiqish; (2) lakunalarni yuzaga keltiruvchi mexanizmlarning tipologik kodlash tizimini asoslash; (3) EN→UZ va UZ→EN yo‘nalishlari bo‘yicha taqsimotlarni qiyoslash; (4) aniqlangan farqlarning statistik ahamiyatliligini tekshirish.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Lakuna atamasining ilmiy muomalaga kirishi Ch. Xokketning “tizimdagi tasodifiy bo‘shliqlar” (*random holes in patterns*) tushunchasi bilan bog‘lanadi: olim til tizimida nazariy jihatdan mumkin bo‘lgan, ammo amalda voqelanmagan nuqtalar mavjudligini asoslab, tillararo qiyoslashda bunday bo‘shliqlarni tizimli hodisa sifatida qarash lozimligini ko‘rsatdi [1]. J.-P. Vine va J. Darbelne qiyosiy stilistikaga bag‘ishlangan tadqiqotlarida atamani fransuz va ingliz tillari materialida qo‘lladilar hamda lakunani bir tilda voqelangan birlikning ikkinchi tilda muvofiq nomga ega emasligi sifatida talqin qildilar [2].

Lakunarlikni qiyosiy o‘rganishning metodologik zamini kontrastiv tahlil an’anasida shakllangan. R. Lado ona tili va o‘rganilayotgan til tizimlarini qiyoslash orqali til o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklarni oldindan bashorat qilish tamoyilini asosladi [9]; bu yondashuv Ch. Frizning chet tilini o‘qitishda tillar tuzilishini qiyosiy tavsiflash haqidagi qarashlariga tayanadi [10]. Semantik jihatdan esa Yu.D. Apresyanning leksik semantika va ma’noni komponentlarga ajratish modeli lakunarlikni sema darajasida o‘lchash imkonini beradi [11]. A. Vejbitskayaning “madaniy kalit so‘zlar” konsepsiyasi milliy-madaniy konseptlarni qiyosiy o‘rganishning semantik asosini yaratdi [12].

O‘zbek tilshunosligida leksik-semantik maydon va semema tuzilishi masalalari Sh. Safarovning semantikaga bag‘ishlangan tadqiqotlarida nazariy jihatdan asoslangan [13]; N. Mahmudov esa tilni mukammal tadqiq etishda uning lingvomadaniy va konseptual jihatlarini hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi [14]. Shu bilan birga, lakunarlik hodisasining o‘zi o‘zbek tilshunosligida asosan illyustrativ-tavsifiy usulda yoritilgan: ingliz va o‘zbek tillari materialiga bag‘ishlangan mavjud ishlarda lakunalar, qoida tariqasida, alohida misollar ro‘yxati sifatida keltiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi. ***Tadqiqot materiali.*** Empirik baza sifatida 60 leksik birlikdan iborat maxsus kodlangan kartoteka shakllantirildi. Kartoteka yo‘nalishlar bo‘yicha muvozanatlashtirilgan: 30 ta birlik ingliz tilidan o‘zbek tiliga (EN→UZ), 30 tasi esa o‘zbek tilidan ingliz tiliga (UZ→EN) yo‘nalishida tahlil qilindi. Bunday teng taqsimot yo‘nalishlararo qiyoslashda tanlanma hajmi ta’siridan qutulish imkonini beradi.

Birliklar quyidagi mezonlar asosida saralandi: (a) birlik tegishli leksik-semantik maydonning yadro yoki yadroga yaqin zonasiga kirishi; (b) birlik uzual, ya’ni nutqda muntazam qo‘llanuvchi bo‘lishi; (c) maqsad tilida bir so‘zli ekvivalentga ega bo‘lmasligi yoki mavjud muvofiqlik manba birlikning semantik hajmini to‘liq qoplamasligi. Kartoteka quyidagi leksik-semantik maydonlarni qamrab oldi: qarindoshlik atamalari, axloqiy-aksiologik tushunchalar, maishiy va marosim realiyalari, ijtimoiy munosabatlar nomlari, oziq-ovqat leksikasi hamda shaxs tavsifi birliklari.

Komponent tahlil va semantik qamrov koeffitsiyenti. Har bir manba birlik lug‘aviy definitsiyalar asosida differensial semalarga ajratildi; bunda Yu.D. Apresyanning semantik tavsif modeliga tayanildi [11]. Manba birlikdagi semalarning umumiy soni n harfi bilan, maqsad tilidagi eng yaqin muvofiqlikda qayta tiklanadigan semalar soni esa m harfi bilan belgilandi. Semantik qamrov koeffitsiyenti quyidagi formula bo‘yicha hisoblandi:

Lakunarlik tiplari. Kq koʻrsatkichi asosida lakunarlikning uch operatsional tipi ajratildi (1-jadval).

1-jadval.

Kq koʻrsatkichi asosida lakunarlik tiplarining operatsional tasnifi

Lakunarlik tipi	Kq oralig‘i	Aniqlash mezoni	Namuna
Mutlaq (absolyut)	Kq = 0 %	Manba birlikning denotativ yadrosi maqsad tilida bir soʻzli nom bilan umuman voqelanmagan; faqat tavsifiy izoh mumkin	*hashar*, *andisha*; *privacy*, *serendipity*
Nisbiy	Kq = 1—99 % (dominant zona 50—99 %)	Denotativ semalar qisman mos keladi; muvofiqlik manba birlikning semantik hajmini toʻliq qoplamaydi	*qalb — soul/heart*; *oila — family*
Uslubiy	Kq = 70—90 %	Denotativ semalar toʻliq mos keladi; farq faqat konnotativ-uslubiy semalar (10—30 %) darajasida saqlanadi	*bola — child*; *uy — home/house*

Mexanizmlar boʻyicha kodlash. Har bir birlik lakunani yuzaga keltiruvchi dominant mexanizm boʻyicha bitta kod bilan belgilandi. Kodlash tizimi quyidagi besh pozitsiyani qamrab oladi:

N — nominativ mexanizm: denotatning oʻzi maqsad madaniyatga ma’lum, ammo uni ifodalovchi alohida leksema mavjud emas; ma’no faqat erkin birikma yoki tavsif orqali beriladi (*sibling* — “aka-uka yoki opa-singil”; *ovsin* — “husband’s brother’s wife”).

S — semantik differensiatsiya: manba tildagi bir leksemaning semantik hajmi maqsad tilida bir necha leksema oʻrtasida taqsimlanadi yoki aksincha; semalarning chegaralanishi mos kelmaydi (*challenge* — “muammo / sinov / da’vat / e’tiroz”; *koʻk — blue / green / sky*).

H — giperonimik-giponimik assimetriya: bir tilda umumlashtiruvchi giperonim mavjud, ikkinchisida esa faqat giponimlar qatori ishlatiladi (*grandparent* — “bobo va buvi”; *in-laws* — “qaynona, qaynota, qayni, qaynsingil”; teskari yoʻnalishda *amaki / togʻa — uncle*).

P — pragmatik-uslubiy mexanizm: denotativ ma’no mos keladi, biroq qoʻllanish doirasi, uslubiy boʻyoq yoki nutqiy odob normalari farqlanadi (murojaat birliklari sifatidagi *aka*, *opa*, *ustoz*; ingliz tilidagi *you* — oʻzbekcha “sen / siz” oppozitsiyasi).

C — madaniy-konnotativ mexanizm: birlik milliy-madaniy yoki aksiologik konnotatsiyaga ega boʻlib, u maqsad til konseptual tizimida mavjud emas (*mahalla*, *sumalak*, *doʻppi*, *or-nomus*, *beshikkerti*; *pub*, *cottage*, *fair play*).

Kodlash ikki bosqichda amalga oshirildi: dastlabki kodlashdan soʻng butun kartoteka mustaqil ravishda qayta koʻrib chiqildi va tafovutli holatlar lugʻaviy definitsiyalarga qaytish yoʻli bilan hal etildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Kartotekaning mexanizmlar va yoʻnalishlar kesimidagi taqsimoti 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

Lakunarlik mexanizmlarining yoʻnalishlar boʻyicha taqsimoti (n = 60)

Kod	Mexanizm	EN→UZ	UZ→EN	Jami	Ulush, %
N	Nominativ	6	4	10	16,7
S	Semantik differensiatsiya	10	2	12	20,0
H	Giperonimik-giponimik assimetriya	7	2	9	15,0
P	Pragmatik-uslubiy	4	6	10	16,7
C	Madaniy-konnotativ	3	16	19	31,6
	Jami	**30**	**30**	**60**	**100,0**

Jadval ma’lumotlaridan koʻrinadiki, mexanizmlarning yoʻnalishlar boʻyicha taqsimoti bir tekis emas. EN→UZ yoʻnalishida semantik differensiatsiya (10 birlik) va giperonimik-giponimik assimetriya (7 birlik) yetakchilik qiladi; UZ→EN yoʻnalishida esa madaniy-konnotativ mexanizm mutlaq ustunlikka ega (16 birlik, ya’ni bu yoʻnalishdagi barcha holatlarning 53,3 % i). Pirson mezoni boʻyicha bu tafovut yuqori darajada ahamiyatli: $\chi^2 = 17{,}75$; $df = 4$; $p < 0{,}01$. Kramer koʻrsatkichi $V = 0{,}544$ boʻlib, mexanizm turi bilan lakunarlik yoʻnalishi oʻrtasida kuchli bogʻliqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Mexanizmlarni ikki makro-sinfga

— struktur-semantik (N, S, H) va madaniy-pragmatik (P, C) sinflarga birlashtirish taqsimotning qutblanish xarakterini yanada yaqqol ko‘rsatadi.

Muhokama. EN→UZ yo‘nalishida struktur-semantik mexanizmlarning ustunligi (76,7 %) ingliz tilining tipologik xususiyatlari bilan izohlanadi. Analitik qurilishga ega bo‘lgan ingliz tilida yuqori darajada umumlashtiruvchi giperonimlar tizimi rivojlangan: *sibling, grandparent, spouse, in-laws, cousin, pet, cutlery* kabi birliklar o‘zbek tilida bir so‘zli muvofiqlikka ega emas va faqat giponimlar qatori bilan yoyiladi. Xuddi shu tarzda ingliz tilining mavhum otlari (*privacy, commitment, challenge, facility*) keng va harakatchan semantik hajmga ega bo‘lib, o‘zbek tiliga o‘tishda bir necha leksemaga bo‘linadi — bu S mexanizmining yuqori chastotasini keltirib chiqaradi.

UZ→EN yo‘nalishida madaniy-konnotativ mexanizmning mutlaq ustunligi (16 birlik) esa boshqa tabiatga ega. Bu yerda gap til tuzilishidagi bo‘shliq haqida emas, balki konseptual tizimdagi bo‘shliq haqida boradi. *Mahalla, hashar, ustoz-shogird, beshikkerti, sumalak* kabi birliklarning ingliz tilida ekvivalenti yo‘qligi ingliz leksik tizimining kamchiligi emas, balki tegishli ijtimoiy-madaniy institut yoki marosimning yo‘qligi natijasidir. Ayniqsa ahamiyatli guruhni *andisha, ibo, or-nomus, insof, mehr-oqibat* kabi axloqiy-aksiologik konseptlar tashkil etadi: ular A. Vejbitskaya talqinidagi “madaniy kalit so‘zlar” maqomiga ega bo‘lib [12], milliy dunyoqarashning tayanch nuqtalarini belgilaydi.

Tadqiqotning cheklovlarini ham qayd etish zarur. Birinchidan, 60 birlikdan iborat kartoteka tanlanma sifatida pilot xarakteriga ega; ayrim mexanizmlar bo‘yicha yacheykalardagi kutilayotgan chastotalar past bo‘lgani sababli χ^2 natijasini kengaytirilgan materialda qayta tekshirish maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, Kq ko‘rsatkichi lug‘aviy definitsiyalarga tayanadi, definitsiyalarning batafsilligi esa lug‘atdan lug‘atga farq qiladi — bu semalar sonining (n) o‘lchanishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Uchinchidan, tahlil bir so‘zli muvofiqliklar bilan cheklandi; frazeologik va tavsifiy muvofiqliklarni hisobga olish tasvirni o‘zgartirishi ehtimoldan xoli emas. Ushbu cheklovlar keyingi tadqiqotlar yo‘nalishini belgilaydi: kartotekani kengaytirish, korpus chastotasi ma’lumotlarini jalb etish va uchinchi tilni qiyoslashga kiritish.

Xulosa.

1. Ingliz va o‘zbek tillari leksik-semantik maydonlaridagi lakunarlik bir o‘lchovli emas, balki ikki mustaqil o‘lchov — semantik chuqurlik (Kq) va sabab-mexanizm o‘lchovlari kesishmasida namoyon bo‘ladigan hodisadir.

2. Lakunarlik mexanizmlarining taqsimoti yo‘nalishga kuchli bog‘liq: $\chi^2 = 17{,}75$; df = 4; V = 0,544. EN→UZ yo‘nalishida struktur-semantik mexanizmlar (76,7 %), UZ→EN yo‘nalishida esa madaniy-pragmatik mexanizmlar (73,3 %) ustunlik qiladi; makro-sinflar kesimida $\chi^2 = 15{,}017$; V = 0,500.

3. Aniqlangan assimetriyaning 80 % i ikki mexanizm — madaniy-konnotativ (50,0 %) va semantik differensiatsiya (30,0 %) hissasiga to‘g‘ri keladi. Nominativ va pragmatik-uslubiy mexanizmlar esa har ikki yo‘nalishda simmetrik taqsimlanadi va universal xarakterga ega.

4. Olingan natijalar lakunarlikni tavsiflashda “chuqurlik × mexanizm” ikki o‘lchovli matritsasidan foydalanishni, kontrastiv tavsifda esa yo‘nalishni majburiy parametr sifatida qayd etishni asoslaydi. Ushbu model ikki tilli leksikografiya, qiyosiy tipologiya va chet tili o‘qitish metodikasida amaliy qo‘llanish imkoniyatiga ega.

ADABIYOTLAR:

1. Hockett Ch.F. Chinese versus English: An exploration of the Whorfian theses // Language in Culture / Ed. by H. Hoijer. — Chicago: University of Chicago Press, 1954. — P. 106—123.

2. Vinay J.-P., Darbelnet J. Stylistique comparée du français et de l’anglais: Méthode de traduction. — Paris: Didier, 1958. — 331 p.

3. Муравьёв В.Л. Лексические лакуны (на материале лексики французского и русского языков). — Владимир: ВГПИ, 1975. — 97 с.

4. Сорокин Ю.А., Марковина И.Ю. Национально-культурная специфика художественного текста. — М.: Наука, 1989. — 87 с.

5. Быкова Г.В. Лакунарность как категория лексической системологии. — Благовещенск: Изд-во БГПУ, 2003. — 364 с.

6. Стернин И.А. Контрастивная лингвистика. Проблемы теории и методики исследования. — М.: АСТ: Восток — Запад, 2007. — 288 с.

7. Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. — М.: АСТ: Восток — Запад, 2007. — 314 с.

8. Ertelt-Vieth A. Interkulturelle Kommunikation und kultureller Wandel. — Tübingen: Gunter Narr Verlag, 2005. — 380 S.

9. Lado R. Linguistics Across Cultures: Applied Linguistics for Language Teachers. — Ann Arbor: University of Michigan Press, 1957. — 141 p.

10. Fries Ch.C. Teaching and Learning English as a Foreign Language. — Ann Arbor: University of Michigan Press, 1945. — 153 p.

11. Апресян Ю.Д. Лексическая семантика: Синонимические средства языка. — М.: Наука, 1974. — 367 с.

12. Wierzbicka A. Understanding Cultures Through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese. — New York; Oxford: Oxford University Press, 1997. — 328 p.

13. Safarov Sh. Semantika. — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013. — 344 b.

14. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab… // O‘zbek tili va adabiyoti. — Toshkent, 2012. — №5. — B. 3—16.

15. Cramér H. Mathematical Methods of Statistics. — Princeton: Princeton University Press, 1946. — 575 p.

16. Mann H.B., Whitney D.R. On a test of whether one of two random variables is stochastically larger than the other // The Annals of Mathematical Statistics. — 1947. — Vol. 18, No. 1. — P. 50—60.